
AYRIM XIZMATLAR UCHUN VOSITACHILIK HAQI TO'LOVCHILARDAN UNDIRILMAYDI



Ayrim xizmatlar uchun vositachilik haqi to'lovchilardan undirilmaydi

“Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida”gi 2023-yil 9-mart sanasida 88-sonli Prezident qarori (PQ-88) qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, 2023 yil 1 maydan benefiwiari byudjet va korporativ buyurtmachi hisoblangan to'lovlar bo'yicha to'lov xizmatlari ko'rsatganlik uchun vositachilik haqi (yig'imlar) to'lovchi – jismoniy shaxsdan emas, balki to'lov summasidan chegirib qolish yo'li bilan undiriladi.

2023 yil 1 maygacha Toshkent shahrida huquqiy eksperiment tariqasida virtual kassa bilan qamrab olingan savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida naqd pul yechish xizmatini ko'rsatish amaliyoti joriy etiladi.

“HUMO” va “UZCARD” to'lov tizimlari o'zaro integratsiyasi bosqichma-bosqich, jumladan:

2023 yil maygacha bankomatlar;

2023 yil yakunigacha to'lov terminallari tizimini integrasiya qilish ishlari yakunlanadi.

2023 yil 1 sentyabrgacha Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi Markaziy bankning “Tezkor to'lovlar” tizimiga integratsiya qilinadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-12 15:07:50